

GORE OUSELEY – SHARQSHUNOS

Tojiboyeva Ozoda Tohirovna,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD

Annotatsiya. *Dunyodagi ilm-fan, madaniyat markazi hisoblangan har bir davlatda sharqshunoslik, turkologiya bo‘yicha muayyan darajada ishlar bajarilgan. Xorijlik olimlar ham o‘zlarining turli ko‘rinishdagi faoliyatlari orqali bevosita bu fan rivojiga hissa qo‘shganlar. Xususan, Alisher Navoiy asarlarining xorijdagi kutubxonalariga borib qolishi, o‘rganilishi ham adib ijodiy merosining dunyo bo‘ylab yoyilishiga olib kelgan. Mazkur maqolada xuddi shunday faoliyat natijasida ingliz adabiyotida Navoiy ijodiy merosining o‘rganilishi borasida ma‘lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Sharq adabiyoti, xorij, ilmiy o‘rganish, manbashunoslik, qo‘lyozma asarlar.*

Аннотация. *В каждой стране, которая считается центром науки и культуры мира, в той или иной степени ведутся работы по востоковедению и тюркологии. Зарубежные ученые своей разнообразной деятельностью также внесли непосредственный вклад в развитие этой науки. В частности, произведения Алишера Навои посещались и изучались в зарубежных библиотеках, что привело к распространению творческого наследия писателя по всему миру. В данной статье представлена информация об изучении творческого наследия Навои в английской литературе в результате такой деятельности.*

Ключевые слова: *восточная литература, зарубежье, научные исследования, источниковедение, рукописные произведения.*

Abstract. *In every country that is considered the center of science and culture of the world, work on Oriental studies and Turkic studies is being carried out to one degree or another. Foreign scientists, through their various activities, also made a direct contribution to the development of this science. In particular, the works of Alisher Navoi were visited and studied in foreign libraries, which led to the spread of the writer’s creative heritage throughout the world. This article provides information on the study of Navoi’s creative heritage in English literature as a result of such activities.*

Key words: *oriental literature, foreign countries, scientific research, source studies, handwritten works.*

Alisher Navoiy asarlarining o‘rganilish tarixini kuzatsak, olimlar bilan birga qirolik saroyida ishlaganlar, nodir manbalarni yig‘uvchi kolleksioner shaxslar, tarbirkorlar ham ishtirok etgani ko‘rinadi. Yirik ilm-fan markazlari faoliyat olib borgan Sankt-Peterburg, London, Vena, Parij kabi yirik shaharlardagi sharqqa tegishli nodir manbalarning to‘planib qolishida ana shu kolleksionerlarning ham hissasi bor.

Alisher Navoiy ijodining Sharqdan G‘arbga o‘tib borishi, ilmiy jihatdan o‘rganilishida orada juda uzoq vaqt kuzatilmaydi. Ma‘lumki, “Sab‘ai sayyor” dostonining syujeti ilk bora Yevropaga Xristofor Armanining “Sarandib shohi va uning uch o‘g‘loni” (1557) nomli asari orqali kirib borgan bo‘lsa, ilmiy jihatdan o‘rganilishi borasida esa fransuz sharqshunosi Bartelemi d’ Erbelo de Molenvil (d’Herbelot de Molainville) (1625–1695)ning “Sharq kutubxonasi yoxud universal

lug‘at” (8600 ta maqola) ensiklopedik (1697) kitobi eslanadi. (Kitob olim vafotidan so‘ng Antuan Golland tomonidan yakunlanib, nashr etilgan).

Qayd etish kerak, ingliz, fransuz, nemis olimlari aksariyat fors-tojik adabiyotidagi buyuk yettilik ortidan Alisher Navoiyga o‘tib keladi. Asosan, o‘rta asr shoirlarini Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari va Mirxond, Xondamir asarlari orqali o‘qib o‘zlashtirgani va ularda ismlari qayd etilgan shoirlar, tarixiy shaxslar haqidagi ma‘lumotlarni kitob tavsiflarida qo‘llaganlar. Nemis tilli adabiyotshunoslik vakillari Martin Xartmann, German Vamberi esa usmonli turk tili orqali o‘zbek adabiyotiga o‘tib kelgani kuzatiladi. Angliyada Alisher Navoiy, Bobur, Ablug‘ozi Bahodirxon asarlarini o‘rganish tarixan inglizlarning Hindistonga borishi, bosib olingan o‘lka madaniyati, ilm-fanini o‘rganishi bilan bog‘liq holda ham rivojlangan deyish mumkin.

Ingliz tadbirkorlarining Hindiston mustamlakasi ortidan u yerga borishi, safar davomida Eron va ko‘plab shaharlarda ko‘plab nodir manbalarni sotib olishi ham Angliya kutubxonalariga sharqqa doir qimmatli manbalar to‘planishiga olib kelgan. Xususan, shunday tadbirkorlardan biri, sharqshunos olim ser Gore Ouseleydir.

Tarixdan ma‘lumki, ko‘plab qimmatli kitoblar davlatlar o‘rtasidagi urushlar, o‘zaro bitimlar, sovg‘a yoki shunga yaqin holatlarda butunlay tili, madaniyati boshqa davlat xazinasiga o‘tib kelgan. Oksford universiteti Bodlean kutubxonasidagi kitoblarning yig‘ilib qolishida ham Gore Ouseley va Jon Bardo Elliotning katta xizmatlari bor. Ouseley Gorening faoliyati va navoiyshunoslikka qo‘shgan hissasi borasida fikr yuritishdan oldin Jon Bardo Elliot haqida ham biroz to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Jon Bardo Elliot (John Bardoe Elliott, 1785-1863) 1800-yilda bosib olingan Hindistonga davlat xizmati bilan borib, 50 yildan ortiq u yerda yashaydi. Patna (Pataliputra, Bengaliya) shahrida nafaqaga chiqqunga qadar sudya bo‘lib ishlaydi. U faoliyati davomida ko‘plab qo‘lyozmalar sotib oladi. Gore Ouseleyning ham kolleksiyasini sotib olganini, jumladan, 422 ta kitob olganini aytadi. Ouseley Gorening kolleksiyasi alohida saqlangan emas, shuning uchun kitoblar nomi yonida Elliot ismi ham qayd etiladi (xuddi Xanikov fondi singari). Kitoblar tavsifida har bir kitobning olingan yili, qaerdan olingani, J. Elliotga topshirilgan vaqti va keyingi merosxo‘ri aniq qayd etilgan. Ular qatorida Alisher Navoiy asarlarini ham ko‘rish mumkin [8, 9].

Ouseley Gore Angliyada Alisher Navoiy asarlarini ilk bora to‘plagan va ilmiy jihatdan o‘rganishga hissa qo‘shgan olim bo‘lsa-da, uning nomi ilmiy adabiyotlarda deyarli eslanmaydi. U haqidagi ilk ma‘lumot rus sharqshunosi A.A.Semyonovning 1940-yilda nashr etilgan “Alisher Navoiy asarlari va u haqidagi adabiyotlar bibliografik ko‘rsatkichiga doir manbalar” (Материалы к библиографическому

указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем) kitobida qayd etiladi (1940). Mazkur kitobda Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida tayyorlangan bo‘lib, unda xorijda bajarilgan ishlar va O‘zbekistonda nashr etilgan Navoiy asarlari manbalari tavsiflangan. A.Semyonovning mazkur kitobidan xorijdagi navoiyshunoslik borasida ham ma’lumot olish mumkin [2, 18].

Sharq manbalari ortidan uni o‘rganishga hissa qo‘shgan Gore Ouseley (1770-1844) asli irlandiyalik bo‘lib, diplomat, tadbirkor, sharqshunos sifatida tarixda qolgan. Akasi – harbiy, mashhur sharqshunos Uilyam Ouseli uni o‘zi bilan Hindistonga olib ketadi (1787). Hindistonda u fors, arab, sanskrit tilini o‘rganadi. Angliya mustamlakasi ostidagi hind yozma merosining katta qismini nashrga tayyorlagan mashhur sharqshunos Uilyam Jons bilan tanishadi. U 1810-yilda Eronga elchi qilib yuboriladi. Diplomatik munosabatlar doirasida Navoiy asarlari lug‘atini tuzgan Fath Ali shoh Kojariy bilan uchrashadi. Ouseleyning arxivida shoh bilan yozishmalari ham to‘liq saqlanib qolgan. Siyosiy tashrif bilan Sankt-Peterburg (1814-15)da ham bo‘ladi. 1813-yil 24-oktyabrdagi rus-eron urushidagi chegaralarni bo‘lib olishga doir Britaniya tomonidan tuzilgan Guliston tinchlik shartnomasida ishtirok etadi [6, 7]. (E’tibor berilsa, fransuz olimi Silvester de Sasi ham Afrika mustamlakasidagi ilk rasmiy xatlarni yozgan, Napoleon Bonapart e’tiboridagi zodagon bo‘lgan). Olimlarning sharq tillarini bilishidan siyosiy maqsadlarda ham davlat asosiy vositachi sifatida foydalangani tarixdan ma’lum.

Gore Ouseley va akasi Uilyam Ouseley to‘plagan kitoblarning qo‘lga kiritilish tarixi asosan Eron, kam sonlarda Hindiston deb qayd etilgan. E’tibor bersak, Sankt-Peterburg fondlariga ham nodir manbalarning borib qolishi ko‘proq Eron bilan bog‘liq edi. Rus-Eron urushida manbalarning olib kelinishi yoxud Sultonali Mashhadiy ko‘chirgan “Ilk devon” rus imperatoriga bitim evaziga berilgani ma’lum. Sankt-Peterburg fondiga nodir manbalarni olib kelgan N.Xanikov ham 1854-yilda Tabrizda elchi bo‘lib ishlagan. 1858-1859-yillarda Xurosonga ekspeditsiyaga rahbarlik qilib, Osiyo muzeyiga (hozirgi Rossiya FA Sharq qo‘lyozmalari instituti)ga 70 ta qo‘lyozma yuborgan. Parijda yashayotganida qolgan qismini ham sotishini aytadi, ammo FA da mablag‘ yetarli bo‘lmagani sababli 1864-yili (166 ta) Sankt-Peterburgdagi Imperator xalq kutubxonasi N.Xanikov to‘plamini sotib oladi [3, 76-77].

Aka-uka Ouseleylar Buyuk Britaniyada sharqshunoslikka asos soladilar. London Qirollik Osiyo jamiyati asoschisi (1823), Sharq tarjimonlik qo‘mitasi tashkilotchisi, Sharq qo‘lyozmalarini nashr etish jamiyati prezidenti (1842) vazifalariga loyiq ko‘riladi. U Angliya oldidagi xizmatlari uchun qirollikning yuqori darajadagi orden va medallari bilan taqdirlangan. Forslarning ikkita, Sankt-Peterburgda esa muqaddas Aleksandr Nevskiy ordeni bilan taqdirlangan. (Ouseley Gore haqidagi ma’lumotlar

ko‘p bo‘lgani bois eng muhimlariga to‘xtaldik, to‘liq ma‘lumotni adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan manbalardan o‘qib olish mumkin).

Gore Ouseley akasi bilan birga fors tilini astoydil o‘rgangan. Keyinchalik diniy kitoblar, Sa‘diy Sheroziyning “Guliston” asarini nashr etishga mas‘ul bo‘lgan. U umri davomida ko‘rgan, to‘plagan ma‘lumotlari asosida fors adabiyotiga doir kuzatishlarini maxsus kitob – ilmiy tadqiqot shaklida tayyorlaydi. Biroq nashr etishga ulgurmaydi va kitob uning vafotidan keyin chop etiladi. Shu o‘rinda mazkur kitobga to‘xtalishdan oldin Gore Ouseleyning fondidagi Navoiy asarlari manbalarini ham qayd etib o‘tish joiz.

Gore Ouseleyning fondini 1859-yilda qabul qilib olgan Jon Bardo Elliot 422 ta kitob ekanligini qayd etadi [8, 9]. Ular Fath Ali shoh bilan rasmiy yozishmalar va Movoraunnahr, Xuroson, Eronda ijod qilgan Sharqning eng mashhur adiblarining asarlari qo‘lyozmalaridan iborat. Xususan, Avhadiddin Anvariyning “Devoni Anvari”, Nizomiy Ganjaviy dostonlari, Muhammad Avfiy Buxoriyning “Javome al-hikoyat”, Hofiz Sheroziy devonlari, Xusrav Dehlaviy dostonlari, Qosim Anvorning “Devoni Qosim Anvor”, Salmon Sovajiy kulliyoti, Samarqandda ko‘chirilgan (1575) Sa‘diyning “Bo‘ston”i, Hofiz Sheroziy devoni, Attorning “Mantiq ut-tayr”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Lutf Alibek Ozarning “Otashkadai Ozariy”, Xondamir “Habib us-siyar” kabi sanog‘i yo‘q kitoblar Ouseley Gore kolleksiyasidan o‘rin olgan. Ibn Sino, Forobiyning arab tilidagi asarlari, Boburning “Boburnoma”si ham mavjud [10]. Ularning deyarli salmoqli qismi XIV, XV, XVI, XVII asrlarda ko‘chirilgan nodir manbalar. Agar vaqt nuqtayi nazaridan qaraydigan bo‘lsak, bizdan deyarli ikki asr oldin Sharqni aylanib chiqqan yuqori mansabdagi, katta sarmoyaga ega bir ingliz zodagoni qo‘lga kiritgan mazkur manbalar har holda o‘rta asrlarga yaqin bo‘lishi tabiiy edi. Keyin olingan qo‘lyozmalar ham miniatyuralar ishlangan, mo‘tabar nusxalar.

Ouseley Gore fondidagi Alisher Navoiy asarlari quyidagilardan iborat:

1. Devoni Amir Navoiy. Kotib Sultonali Mashhadiy (tax. 1513). Elliot № 90. 139 sahifa.
2. G‘aroyib us-sig‘ar. Elliot № 91. 180 sahifa.
3. Hayrat ul-abror. 1485 iyul-avgust. Elliot № 287.
4. Sab‘ai sayyor. Elliot № 317. 1485. (Sulton Badiuzzamon kutubxonasida saqlangan, 1514, tarzida qayd etilgan).
5. Sab‘ai sayyor. Kotib Muhammadali. Buxoro, 1553. Elliot № 318.
6. Saddi Iskandariy. 1485. Elliot № 339. 97 sahifa.
7. Saddi Iskandariy. Kotib Muhammadali. Buxoro, 1553. Elliot № 340.
8. Farhod va Shirin. 1485. Elliot № 408.

9. Lison ut-tayr. 1530. № 195. 101 sahifa. Miniatyurlar ishlangan. Tabrizdan olingan.

10. Layli va Majnun. 1485. № 3. (Sulton Badiuzzamon kutubxonasida saqlangan, 1514, tarzida qayd etilgan) [9].

Ouseley Gore Sharq adabiyotini yaxshi o‘rgangan, u sotib olgan kitoblar bilan tanishib chiqqan. Sotib olishda ham eng qadimiy, nodir nusxalarini olgan. Alisher Navoiy asarlari ham qadimiy, nodir nusxalar.

Uning sharqshunoslikda bajargan yana eng katta xizmati Sharq adiblari asarlarini o‘rganib, ularning hayoti va ijodi, asarlari tavsifi va mazmunidan iborat “Fors shoirlarining biografik eslatmalari” (Biographical Notices of Persian Poets) kitobini tuzganidir. Mazkur kitob sharqshunos olib borgan ko‘p yillik kuzatishlar, xorij safaridagi o‘rganishlar, sotib olingan kitoblardagi ma’lumotlarni o‘rganish asosida yuzaga chiqqan [1]. Albatta, kitob uning umrining oxirgi yillarida Angliyada yozilgan, biroq uni tiriklik paytida chop etishga ulgurmagan va 1846-yil vafotidan so‘ng chop etilgan.

“Fors shoirlarining biografik eslatmalari” kitobida 30ga yaqin fors shoirlari haqida ma’lumot berilgan. Kitobda fors tilida ijod etgan shoirlar yashab o‘tgan davri bo‘yicha ketma-ket berilgan emas. Mundarijada har bir adib “Xoja Hofiz Sheroziy devoni” singari nomlanadi. Alisher Navoiy haqidagi ma’lumot kitobda to‘rtinchi o‘rinda – Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviydan so‘ng berilgan. Navoiyga ajratilgan matn sarlavhasi “Amir Alisherning “Buyuk Aleksandr devori” asari” tarzida nomlanadi [1, 50-53]. To‘rt sahifadan o‘rin olgan mazkur matnda garchi “Saddi Iskandariy”ning dunyo bo‘yicha mashhur tarixi asosida nomlangan bo‘lsa-da, unda asar haqida emas, aksincha Alisher Navoiyning tarjimayi holi va asarlari haqida ma’lumot berilgan.

Xususan, Nizomiyning “Buyuk Aleksandr tarixi”ga o‘xshatma asar muallifi Amir Alisher Navoiy tatar shahzodasining o‘g‘li, chuqur bilim, yaxshi tarbiya olgan, deyiladi. Husayn Boyqaroning bosh vaziri edi. Davlat arbobi, shoir, saxiylikda tengi yo‘q, faoliyati davomida ilm-fan ahliga, dehqonlarga homiylik qildi, boyligini xayriyaga sarfladi, Hirotda yashadi, garchi davlat ishlari bilan band bo‘lsa-da, ijodiy yutuqlarga erishish uchun bo‘sh vaqt topa oldi. Turkiyadagi asarlari hajmi katta, o‘n ming baytgacha bor, Nizomiyning beshta dostoniga o‘xshatma yozgan bo‘lib, o‘ttiz ming bayt hajmida, kishini hayratga soladi. Forsiy tilda “Foniy” taxallusi bilan yozgan ikkita she‘ri Lutf Alining “Otashkada” asariga kirgan. Sherxon Lo‘di uni saxiy, xayr-saxovatli, iste’dodli deya ta’riflagan. Turkiy adabiyotda tengi yo‘q, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz Koshifiy, Davlatshoh Samarqandiy o‘z asarlarida Alisher Navoiyni ta’riflagan, kabi ma’lumotlarni qayd etadi. Nizomiy, Dehlaviy dostonlari ta’sirida yozilgan “Xamsa” dostonlarini,

“Xazoyin ul-maoniy”dagi to‘rt devonni nomlari bilan qaysi yoshlarni bildirishini ko‘rsatib o‘tadi.

Gore Ouseley Bodlean kutubxonasida Elliot 340-raqamdagi “Saddi Iskandariy” qo‘lyozmasidan foydalangan. “Iskandar devori” kitobi 202 sahifadan iborat, Sultonning xattoti Muhammad Ali tomonidan 1552-yili (h. 960) Buxoroda ko‘chirilgan, miniatyuralar ishlangan, qizil, ko‘k, yashil ranglar berilgan, oltin hal bilan ziynatlangan, deb ma‘lumot beradi. Kitobning bosh sahifalaridagi uch betga Ouseley Gore oddiy siyoh bilan Alisher Navoiy haqida qaydlar bitgan. Farididdin Attor ta‘rifida ham uning qabrini Amir Alisher ta‘mirlatdi, deya eslaydi [1, 241].

Ouseley Gore Navoiy haqidagi ma‘lumotlarni fors tilidagi manbalardan olgan, matnda u o‘zi foydalangan manbalarni aniq ko‘rsatgan. Gore Ouseley garchi Alisher Navoiyni fors adiblari qatorida bergan bo‘lsa ham, uning tarjimai holi, faoliyati, ijodi borasida yetarlicha ma‘lumot berishga harakat qilgan. Ayrim g‘arblik tadqiqotchilar yo‘l qo‘ygan kamchiliklar ko‘zga tashlanmasa-da, tatar shahzodasining o‘g‘li deb qayd etishi ajablanarli. Ayrim manbalarda mualliflar Abulg‘ozi Bahodirxonni ham tatar deb aytishadi. Britaniya muzeyi qo‘lyozmalarini, xususan, turkiy qo‘lyozmalar qismida Alisher Navoiy asarlarini tavsiflagan, kataloglashtirgan Charlz Riyodan Gore Ouseleyning 50 yosh kattaligi va mazkur kitob undan ilgariroq nashr etilganini inobatga olsak, Navoiy ijodi Angliyada ancha oldin boshlangan, deyish mumkin. Ko‘rinadiki, Alisher Navoiy Yevropaga fors shoirlari qatorida kirib borgan va har ikki tilda tengi yo‘q shoir, oliyjanob shaxs sifatida e‘tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sir Gore Ouseley, *Biographical Notices of Persian Poets with Critical and Explanatory Remarks, with a Memoir of the late Right Hon. Sir Gore Ouseley, baronet*, by James Reynolds, London, 1846.
2. Семенов А. А. Материалы к библиографическому указателю печатных произведений Алишера Навои и литературы о нем. – Ташкент, 1940.
3. Россия миллий кутубхонасидаги Навоий кўлёмалари тўпламлари тарихидан. Ўзбекистон маданий мероси. Китоб-альбом. – Тошкент: Silk Road Media, 2021.
4. Charles Rieu. *Catalogue of the Turkish Manuscripts in the British Museum.* – London, 1888. – 345 p.
5. *Catalogue of the Persian, Turkish, Hindustani, and Pushtu manuscripts in the Bodleian Library / begun by Ed. Sachau, continued, compl. and ed. by Hermann Ethé.* Oxford : Clarendon Pr., 1930.
6. https://en.wikipedia.org/wiki/Gore_Ouseley
7. <https://www.iranicaonline.org/articles/ouseley-sir-gore>
8. [John Bardoe Elliott - Wikipedia](#)
9. [Джон Бардо Эллиотт - John Bardoe Elliott - abcdef.wiki](#)
10. https://www.fihrist.org.uk/catalog/person_44733962